

KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XVII RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

SENTYABR, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XVII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 17-son (14-sentyabr, 2026-yil).– 132 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 11-sentyabr

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XVII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KRIMINALINGVISTIK BIRLIKLARNING USLUBIY XOSLANISHI (BADIY, PUBLITSISTIK, SO'ZLASHUV USLUBI MISOLIDA)

Abdualilova Ruxshona Abdug'afforzoda

Toshkent davlat tibbiyot universiteti Termiz filiali. Assistent

Email: ruxshonaabdualilova9418@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada kriminalingvistikaning fanlararo yo'nalish sifatidagi o'rni hamda lingvistik tahlilning huquqiy tergov va kriminalistik ekspertizadagi imkoniyatlari tadqiq etiladi. Ingliz va o'zbek tillaridagi fonologik, leksik, sintaktik, idiomatik va uslubiy birliklarning mualliflikni identifikatsiya qilish, matn autentikligini aniqlash va lingvistik profilashdagi ahamiyati qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari mazkur birliklarning kriminalistik stilistika va sud-lingvistik ekspertizada muhim daliliy manba bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: kriminalingvistika, kriminalistik stilistika, sud-lingvistik ekspertiza, mualliflikni identifikatsiya qilish, idiomatik birliklar, leksik tanlov, sintaksis, lingvistik profilash.

STYLISTIC CHARACTERISTICS OF FORENSIC LINGUISTIC UNITS IN ENGLISH AND UZBEK (BASED ON LITERARY, PUBLICISTIC, AND COLLOQUIAL STYLES)

Abdualilova Ruxshona Abdug'afforzoda

Termez Branch of Tashkent Medical Academy, Assistant

Annotation. This article examines the role of forensic linguistics as an interdisciplinary field and explores the potential of linguistic analysis in legal investigations and forensic linguistic examinations. It presents a comparative analysis of the significance of phonological, lexical, syntactic, idiomatic, and stylistic units in English and Uzbek regarding authorship identification, text authenticity verification, and linguistic profiling. The research findings indicate that these units can serve as important sources of evidence in forensic stylistics and forensic linguistic expertise.

Keywords: forensic linguistics, forensic stylistics, forensic linguistic expertise, authorship identification, idiomatic units, lexical choice, syntax, linguistic profiling.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i17/n16>

Kirish (Introduction). Kriminalingvistika tilshunoslik tahlili metodlarini huquqiy tergov va kriminalistik tekshiruv jarayonlariga tatbiq etuvchi muhim fanlararo soha hisoblanadi. Mazkur yo'nalishning asosiy vazifalaridan biri yozma matn yoki og'zaki nutq muallifligini aniqlash, shuningdek, matnning autentikligini baholashdan iborat. Bunda sintaktik qurilmalar, leksik tarkib, grammatik xususiyatlar, uslubiy tanlovlar va boshqa individual lingvistik belgilarni kompleks tahlil qilish orqali shaxsning individual nutqiy xususiyatlari bilan uning tildan foydalanish uslubi o'rtasidagi bog'liqlik aniqlanadi. Mazkur yondashuv kriminalistik stilistika uchun, ya'ni jinoyat yoki huquqiy jarayonlar bilan bog'liq yozma va og'zaki nutq namunalarining lingvistik-uslubiy xususiyatlarini tahlil qilishga ixtisoslashgan yo'nalish uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan kriminalingvistik tahlil mualliflikni aniqlash, matnning kelib chiqishi va autentikligini baholash hamda muayyan shaxsning individual nutqiy profilini belgilashda muhim ilmiy-amaliy vosita sifatida namoyon bo'ladi (1).

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Fonologik birliklardan tortib diskurs markerlarigacha bo'lgan turli lingvistik birliklarni tahlil qilish kriminalistik

stilistikaning muhim asoslaridan biridir, chunki ushbu birliklar har bir so'zlovchi yoki yozuvchiga xos bo'lgan nozik uslubiy jihatlarni namoyon etadi (2). Ingliz va o'zbek tillari misolida bu jarayon madaniy va uslubiy farqlarni aks ettiruvchi idiomalar, metaforalar hamda gap tuzilmalari kabi xususiyatlarni chuqur o'rganishni o'z ichiga oladi. Masalan, idiomatik iboralar ko'pincha ma'lum bir madaniyatga xos qo'shimcha ma'nolarni ifodalaydi va shu orqali bir til jamoasini boshqasidan farqlashga yordam beradi; bu esa kriminalistik identifikatsiyada muhim rol o'ynaydi (3). Bundan tashqari, ushbu birliklarni badiiy, publitsistik va so'zlashuv uslublari doirasida o'rganish tilning turli kommunikativ vaziyatlarda qanday qo'llanilishini har tomonlama tushunish imkonini beradi hamda kriminalistik tahlil uchun muhim ma'lumotlarni taqdim etadi (4).

Kriminalistik tahlilda uslubiy tavsiflash muhim ahamiyatga ega, chunki u lingvistik tekshiruvlarning aniqligi va chuqurligini oshiradi, ayniqsa mazmunini kontekst asosida talqin qilish talab etiladigan matnlar yoki nutqiy birliklarni o'rganishda bu juda muhimdir (5). Masalan, o'zbek tilshunosligida uslubiy xususiyatlarni o'rganish ingliz tilidagi uslublardan sezilarli darajada farq qiluvchi badiiy va funksional nutq uslublarini tushunishga katta hissa qo'shadi (6). Ushbu uslubiy xususiyatlarni aniqlash kriminalistika mutaxassislariga matnlarni muayyan mualliflarga aniqroq nisbat berish yoki aldovga asoslangan til birliklarini aniqlash imkonini beradi. Shunday qilib, uslubiy tahlil nafaqat huquqiy jarayonlarni qo'llab-quvvatlaydi, balki turli tillar va uslublardagi madaniy hamda lingvistik xilma-xillikni chuqurroq anglashga ham yordam beradi.

Ko'chma ma'noli birliklar va badiiy tasvir vositalari, xususan, metafora, o'xshatish, jonlantirish va allegoriya ingliz va o'zbek tillaridagi badiiy matnlarning individual uslubiy xususiyatlarini shakllantiruvchi muhim vositalardir. Ularning qo'llanishi nafaqat matnning obrazlilik va ta'sirchanligini kuchaytiradi, balki muallifning kommunikativ maqsadi hamda madaniy kontekstini ham aks ettiradi. Mazkur birliklarning qo'llanish xususiyatlarini tahlil qilish muallifning individual uslubini aniqlash, shuningdek, matnning autentikligini baholash va ehtimoliy o'zgartirishlarni aniqlashda qo'shimcha lingvistik mezon sifatida xizmat qilishi mumkin. Gap tuzilishi va leksik tanlov ham muallifning individual yozuv uslubini belgilovchi muhim lingvistik ko'rsatkichlardan hisoblanadi. Badiiy matnlarda murakkab sintaktik konstruksiyalar, turli predikativ tuzilmalar, arxaik va poetik leksika, madaniy jihatdan markirovkalangan birliklar hamda idiomatik iboralarining qo'llanishi matnning uslubiy va semantik xususiyatlarini belgilaydi. Ingliz va o'zbek badiiy matnlarida ushbu vositalarning tanlanishi va qo'llanish chastotasidagi farqlar ularning milliy-madaniy hamda uslubiy xususiyatlarini namoyon etadi. Shu bois mazkur lingvistik belgilarni kompleks va tizimli tahlil qilish kriminalistik stilistika doirasida mualliflikni aniqlash hamda matnlarning autentikligini baholash uchun muhim qo'shimcha mezon bo'lib xizmat qilishi mumkin (8).

Madaniy o'ziga xoslik ingliz va o'zbek tillaridagi so'zlashuv hamda idiomatik birliklarning shakllanishi va qo'llanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatib, ularda ijtimoiy me'yorlar, an'analar, urf-odatlar va hududiy nutq xususiyatlarining aks etishiga sabab bo'ladi. Xususan, o'zbek tilidagi so'zlashuv iborolari milliy-madaniy qadriyatlar va nutqiy an'analar bilan bog'liq mazmunni ifodalashi mumkin. Ingliz tilining norasmiy nutqida ham ko'chma va idiomatik ma'noda qo'llanadigan turg'un birikmalar keng tarqalgan. Masalan, *hit the nail on the head* idiomasi fikr yoki vaziyat mohiyatini aniq anglash va to'g'ri ifodalash ma'nosida qo'llanadi.

Idiomatik va madaniy jihatdan markirovkalangan birliklar kriminalingvistik tahlilda muhim uslubiy va pragmatik ko'rsatkichlardan biri sifatida qaralishi mumkin. Ularning qo'llanish chastotasi, kontekstdagi funksiyasi va boshqa individual nutqiy belgilar bilan uyg'unligi muallif yoki so'zlovchining lingvistik profilini shakllantirishga yordam beradi. Biroq bunday birliklar shaxsning ijtimoiy-madaniy yoki hududiy mansubligini mustaqil ravishda belgilamaydi, balki fonologik, leksik, grammatik, sintaktik va pragmatik xususiyatlar bilan birgalikda baholanishi lozim. Shu jihatdan madaniy jihatdan shartlangan idiomatik birliklarni tizimli o'rganish kriminalistik profillashda nutqiy materialni kompleks baholash uchun qo'shimcha lingvistik mezon bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Ingliz va o'zbek tillaridagi so'zlashuv uslubining muhim jihatlaridan biri norasmiy til va slang birliklaridan foydalanish bo'lib, ular kundalik muloqotda oson taniladigan suhbatga xos ohangni yuzaga keltiradi. Ingliz tilida *"cool"*, *"gotcha"* yoki *"hit the nail on the head"* kabi slang so'zlar va idiomatik iboralar so'zlashuv nutqining keng tarqalgan belgilaridir; ular madaniy o'ziga xoslik va ijtimoiy identifikatsiyani aks ettiradi. Slang va idiomatik iboralar kontekstga kuchli darajada bog'liq hamda madaniy jihatdan o'ziga xos bo'lganligi sababli, kriminalingvistlar ushbu xususiyatlarni sinchiklab tahlil qilishlari kerak. Bu tergov qilinayotgan shaxsning tabiiy so'zlashuv uslubini ataylab tanlangan uslubiy vositalardan farqlash imkonini beradi (7).

English slang	O'zbekcha muqobili	Kriminal kontekst
snitching	chaqimchilik qilish / sotish	jinoyat haqida ma'lumot berish
grass (BrE)	chaqimchi	politsiyaga xabar beruvchi
inside man	ichkaridagi odam / sherik	tashkilot ichidagi yashirin hamkor
dirty cop	poraxo'r / korrupsiyaga aralashgan politsiyachi	huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimi
getaway	qochib ketish	jinoyatdan keyingi qochish
stash	yashirilgan narsa / yashirin zaxira	pul, narkotik yoki boshqa noqonuniy buyum
stash house	yashirin saqlash joyi	noqonuniy narsalar saqlanadigan joy

"Spill the beans" — hozirgi ingliz tilida *"sirni oshkor qilmoq"*, *"yashirin ma'lumotni aytib qo'ymoq"* ma'nolarida ishlatiladigan idiomatik iboradir. *"Spill"* fe'lining qadimgi ma'nolari *"yo'q qilmoq, nobud qilmoq, zo'ravonlik bilan o'ldirmoq"* kabi ma'nolarni anglatgan bo'lsa, keyinchalik uning ma'nosi *"to'kmoq"* va *"behuda sarflamoq"* kabi ma'nolarni ham qamrab olgan. *"Spill the beans"* iborasi XX asr boshlarida dastlab *"vaziyatni buzib qo'ymoq"* ma'nosida qo'llangan bo'lsa, 1919-yildan boshlab *"sirni oshkor qilmoq"* ma'nosida qayd etilgan. Shu sababli ushbu iborani so'zma-so'z *"loviyalarni to'kmoq"* deb tarjima qilish to'g'ri emas; uning mazmuniy ekvivalenti *"sirni oshkor qilmoq"* yoki *"sirni aytib qo'ymoq"* hisoblanadi (9).

Madaniy o'ziga xoslik ingliz va o'zbek tillaridagi so'zlashuv iboralarining shakllanishida muhim rol o'ynaydi hamda kriminalistik tahlilda uslubiy birliklarning qanday talqin qilinishi va qo'llanilishiga ta'sir ko'rsatadi. Ingliz tilidagi so'zlashuv iboralarida ko'pincha madaniy ishoralar, tarixiy idiomalar va ommaviy madaniyatga oid birliklar uchraydi; ular hududiy yoki ijtimoiy identifikatsiyaning o'ziga xos belgilariga aylanishi mumkin. Aksincha, o'zbek tilidagi

so'zlashuv nutqi an'anaviy folklor, maqollar va mahalliy urf-odatlariga katta darajada tayanadi va shu sababli u milliy-madaniy meros bilan chambarchas bog'langan. Madaniyatga singib ketgan bunday iboralar uslubiy "imzo" vazifasini bajarib, madaniy kontekst to'g'ri tushunilgan taqdirda kriminalingvistlarga mualliflikni yoki hududiy kelib chiqishni aniqlashda yordam berishi mumkin. Shunga qaramay, bunday madaniy o'ziga xoslik tillararo kriminalistik tekshiruvlarni murakkablashtiradi, chunki to'g'ridan-to'g'ri tarjima yoki yuzaki tahlil aniq identifikatsiya va to'g'ri talqin uchun muhim bo'lgan nozik madaniy belgilarni e'tibordan chetda qoldirishi mumkin (7). Shu sababli, so'zlashuv tilining madaniy asoslarini tushunish turli lingvistik muhitlarda kriminalistik uslubiy tahlilning samaradorligini oshiradi.

Xulosa va takliflar (Conclusion /Recommendations). Xulosa qilib aytganda, ingliz va o'zbek tillaridagi kriminalingvistik birliklarning uslubiy tavsifi badiiy, publitsistik va so'zlashuv uslublarida mavjud bo'lgan o'ziga xos hamda umumiy xususiyatlarni namoyon etadi. Ushbu uslubiy belgilarni tushunish kriminalistik tahlillarning aniqligi va ishonchligini oshirib, mualliflikni hamda individual lingvistik xususiyatlarni aniqlashga yordam beradi. Qiyosiy tahlil natijalari nafaqat tillararo kriminalistik tekshiruvlarni osonlashtiradi, balki kriminalingvistikada madaniy va lingvistik nozik jihatlarning naqadar muhim ekanligini ham ko'rsatib beradi. Umuman olganda, bunday kompleks yondashuv kriminalingvistik tadqiqotlarning qamrovini kengaytiradi va ko'p tilli muhitlarda yanada samarali tahlil usullarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Rehana Y. A and 3Dr. Behzad A. A Forensic Stylistic Analysis of Legalese of Banking Courts in Pakistan. - Pakistan Social Sciences Review. 2023.-330p,
2. Forensic Linguist | Department of English - CSUSB. (n.d.). www.csusb.edu
3. Akhtamjonova N. STYLISTIC PECULIARITIES OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN Uzbek and English languages. Samarkand State Institute of Foreign Languages. Hon Archi. - 2026. globalconf.net/index.php/PLLTSL/article/view/261
4. Rakhimboeva M. Comparative Analysis of Stylistic Devices in English and Uzbek literary texts. TARAQQIYOTNING USTUVOR YO'NALISHLARI" nomli Respublikailmiy-amaliymasofaviy konferensiyasi .-2026, 189p innopublication.com/index.php/zyty/article/view/347
5. Ne'matova M. The Importance of Stylistic Research in Uzbek Linguistics. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences. 2025. -5p geniusjournals.org
6. Zoirjonov Sh. A comparative analysis of the linguistic and cultural characteristics of modern units of measurements in Uzbek and English languages. THEORETICAL ASPECTS IN THE FORMATION OF PEDAGOGICAL SCIENCES. -11p. econferences.ru
7. Ravzatulloeva S. THE STYLISTIC FEATURES OF LANGUAGE - inLibrary. JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY SCIENCES AND INNOVATIONS GERMAN INTERNATIONAL JOURNALS COMPANY .-2025. – 254p. inlibrary.uz/index.php/jmsi/article/view/128276
8. Behzodova Sh. Using Stylistic Devices in English Language Compared with Uzbek language grnjournal. AMERICAN Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education. 2024.-557p. us/index.php/STEM/article/view/4842
9. <https://www.etymonline.com/word/gangster>

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XVII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, sentyabr

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.

XVII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.

2-jild, 17-son (14-sentyabr, 2026-yil). – 132 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 11-sentyabr.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.